



UDK:796.06:654.19

Dilnoz MURTAZAYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti
E-mail: dilnozmurtazaeva@gmail.com

PhD Sh.Hayitov taqrizi asosida

TELEKO'RSATUVLAR VA SPORTNI OMMALASHTIRISH MASALALARI (O'zMTRK MISOLIDA)

Annotatsiya

Biz oynai jahon ya'ni, televideniye orqali olimpiada sport turlarini mashhur tarixiy manbalar, kitoblar va tarixiy kinolar orqali ham ko'rishimiz mumkin. Bir so'z bilan aytganda, o'sha davrda sportga, jismoniy tarbiyaga bo'lgan katta ishtiyoq yillar oshib, sport jurnalistikasi shakllanib rivojlandi, ommalashdi. Ma'lumki, XX asrda O'zbekiston televideniyesi qoshida "Sport" muharririyati ijodkorlari tomonidan ko'rsatuvlar tayyorlangan. Har bir teleko'rsatuvni tayyorlashda janr, mavzu, kontseptsiya hamda yaxshi yozilgan ssenariy muhim o'rin egallaydi.

Kalit so'zlar: OAV, televideniye, ssenariy, ko'rsatuv, islohot, sport, sog'lom turmush tarsi.

ВОПРОСЫ ПОПУЛЯРИЗАЦИИ ТЕЛЕПРОГРАММ И СПОРТА (НА ПРИМЕР НТРК УЗБЕКИСТАНА)

Аннотация

Мы можем смотреть олимпийские виды спорта по телевидению, через известные исторические источники, книги и исторические фильмы. Словом, в этот период с годами возросло большое увлечение спортом и физкультурой, сформировалась и развивалась спортивная журналистика, становилась популярной. Известно, что в XX веке программы готовились создателями редакции «Спорт» на Центральном телевидении Узбекистана. Жанр, тема, концепция и хорошо написанный сценарий играют важную роль в подготовке каждой телепередачи.

Ключевые слова: СМИ, телевидение, сценарий, шоу, реформа, спорт, здоровый образ жизни.

ISSUES OF POPULARIZATION OF TV PROGRAMS AND SPORTS (FOR EXAMPLE OF NTRK UZBEKISTAN)

Annotation

We can watch Olympic sports on television, through famous historical sources, books and historical films. In short, during this period over the years, a great passion for sports and physical education has grown, sports journalism has formed and developed, and has become popular. It is known that in the twentieth century, programs were prepared by the creators of the editorial board "Sport" on the Central Television of Uzbekistan. Genre, theme, concept and a well-written script play an important role in the preparation of each TV program.

Key words: Media, television, script, show, reform, sports, healthy lifestyle.

Kirish. Ma'lumki, bugungi kunda televideniye va radio ommaga mamlakatimiz va xorijda ro'y bergan muhim xabar va yangiliklarni yetkazib berish, ijtimoiy fikr uyg'otish, qolaversa, dam olishiga ko'maklashish kabi asosiy vazifalaridan tashqari, inson psixologiyasiga ta'sir ko'rsatish, uning dunyoqarashi kengaytirish, ongini o'zgartirish qudratiga ega kuchli vositalardan biriga aylangan[1]. Har bir teleko'rsatuvni tayyorlashda janr, mavzu, kontseptsiya hamda yaxshi yozilgan ssenariy muhim o'rin egallaydi.

Mamlakatimizda sportni ommalashtirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.02.2024 yildagi PF-37-son Farmoni asosida "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi qabul qilindi[2]. Ushbu dasturda ta'kidlanganidek, 10 million nafar aholini yugurish, futbol, voleybol, stol tennisi, shaxmat, milliy va belbog'li kurash kabi sport turlari bo'yicha marafon va musobaqalarni tashkil etish orqali ommaviy sportga jalb etish choralari ijrosini amalda ta'minlashi yuzasidan joylarda izchil islohotlar, sport tadbir va musobaqalari olib borilayotganligi O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasida atroflicha yoritib borilmoqda.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son farmoni qabul qilingan[1]. Ushbu 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmonda mamlakatimizni 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalish

bo'yicha harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300ga yaqin qonun, O'zbekiston Respublikasining to'rt mingdan ziyod qarorlari qabul qilindi. Mazkur strategiyada inson qadriini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatni yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish borasida 100 ta maqsad belgilangan. Jumladan, 67-maqsadda "Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish" masalasi muhimdir. Unda quyidagilar belgilangan. Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan aholi sonini 2026-yilda 33 foizga chiqarish. Respublika yoshlari o'rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish. O'zbekistonda sportning ommaviyligini oshirish maqsadida milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirish.

-Yurtimizning chekka hududlari va qishloqlarida sog'lomlashtirish ishlarini yanada rivojlantirish.

-Barpo etiladigan har bir "Yashil hudud" da yugurish, velosipedda harakatlanish uchun "Salomatlik yo'laklari" hamda badminton, stritbol va vorkaut maydonchalarini tashkil etish.

-Vazirlik, idora hamda tashkilotlar xodimlarini va aholini sport tadbirlariga jalb qilish, ular yrtasida musobaqalar tashkil qilish.

-Milliy olimpiada sport o'yinlarini o'tkazish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.

-Sport o'yinlari o'tkaziladigan sport ob'ektlari infratuzilmasini yaxshilash va zarur sport inventarlari bilan jihozlash.

-Milliy olimpidagi o'yinlarini yuqori darajada tashkil etish hamda g'olib va sovrindorlarni munosib rag'batlantirish.

-Milliy olimpidagi o'yinlariga tayyorgarlik ishlarining borishini ommaviy axborot vositalari orqali, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida keng yoritilishini tashkil etish [9]. Ushbu vazifalarni puxta o'rganish va Respublikamiz hududlarida olib borilayotgan ommaviy sport turlarining aholi o'rtasidagi targ'ibot va tashviqot hamda turli sport to'garak va sektiyalar faoliyati haqida "Sport" DM telekanalida maxsus repotaj va informatsion dasturlarida yoritilib borilmoqda.

Prezidentimizning 21.02.2024 yildagi PF-37-son farmonida "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga ko'ra; "Aholining yosh toifalari bo'yicha barcha hududlarida har yili jismoniy tayyorgarlik sinovlarini o'tkazish. Sport bilan shug'ullanishga jalb qilingana aholi ulushini oshirish. Aholini sport turlariga jalb qilish orqali jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilar qamrovini 26 foizdan 28 foizga yetkazish vazifalari belgilandi [1]. Mazkur farmonning ijrosi borasida keleshda ko'plab islohotlar amalga oshiriladi. Hamda jamiyatimizda sog'lom avlod tarbiyasida sportning o'rni nechog'li muhim ekanligi haqida OAVda targ'ibot ishlari yanada jadallashadi. Ushbu farmonning to'liq tafsiloti (Lex.uz saytida) kengroq berilgan va kerakli ma'lumotlarni olish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi Ma'lumki, XX asrda Markaziy O'zbekiston televideniyesi qoshida "Sport" muharririya ijodkorlari tomonidan "Quvnoq startlar" 45 daqiqali bolalarga oid ko'rsatuv tayyorlangan. Tajribali sharhlovchi Axbor Imomxo'jayev musobaqalarni sharhlagan. Tadqiqotlar o'rganilgan so'rovnomalarga ko'ra, 1980 yil Moskvada to'rt yilda bir marotaba tashkil etiladigan yozgi olimpiada o'yinlari o'tkazilgan edi. Ushbu musobaqalarni O'zbekiston televideniyesi Moskvadan to'g'ridan-to'g'ri translyatsiya orqali efirga uzatgan. O'zbekiston televideniyesi orqali turli yosh toifalariga oid spartikiada o'yinlari va nufuzli musobaqalar namoyish etilgan.

Ma'lumki, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining asosiy maqsadi respublikamiz va jahonda sodir bo'layotgan voqea-hodisalardan aholini tezkorlik, xolislik va haqqoniylik asosida xabardor etish bo'lsa, mamlakatimizda ro'y berayotgan ulkan ijobiy o'zgarishlarni huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni shakllantirish yo'lidagi islohotlarni keng yoritish uning ustuvor vazifalardan iborat.

Ta'kidlash joizki, 2015 yilga kelib teleradiokompaniya tizimidagi telekanallar 26taga etdi, radiokanallar soni 16tani tashkil etdi. Hozirgi kunda O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasida 14ta telekanal 24 soat mobaynida o'z tomoshabinlariga sifatli telemahsulotni tayyorlashda o'z faoliyatini davom ettirayapti [2].

Sportni ommalashtirishda tematik, mavsumiy ko'rsatuvlar mavjud. Mamlakatimiz yil davlat dasturi asosida tayyorlanadigan sportni ommalashtirishga oid teleko'rsatuvlar "O'zbekiston", "O'zbekiston 24", "Sport", "Toshkent" "Mahalla", "Yoshlar", "Dunyo bo'ylab" telekanallarida keng yoritilib boriladi.

Tahlil va natijalar 2024 yil 28 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi tomonidan "Yangi nafas" yugurish musobaqasi tashkil etildi. Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularning salomatligini mustahkamlash va ommaviy sportni yanada rivojlantirish maqsadida "Bir Vatanda, bir vaqtda, bir masofada birga yuguramiz" shiori ostida hududlarda yugurish marafoni

o'tkazildi. Tahlil va natijalarga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasida 7000 nafar, Qashqadaryo viloyatida 3000 nafar, Navoiy viloyatida 5000 nafar, Namangan viloyatida 4500 nafar, Farg'ona viloyatida 6000 nafar, Sirdaryo viloyatida 1000 nafar, Toshkent viloyatida 6000 nafar sportsevar ishtirok etdi. Ushbu sport bahslari mamlakatimizning barcha OAVda keng tarzda yoritildi [1].

Hozirgi kunga kelib, chet eldagi OAVda ham sog'lom turmush tarziga oid turli ko'rsatuv va tok-shoular tayyorlanib kelinayapti. Jumladan, TV3.ru <https://g'g'tv3.ru>project>azbuka-zdorovya> internet tarmog'idagi saytida berilgan ma'lumotga ko'ra, Rossiya davlatidagi "TV3" telekanalida "Azbuka zdorovya" nomli tok-shou ham sog'lom turmush tarziga asoslanganligi bilan muhim o'rin egallaydi. [1] Mazkur tok-shou 2016 yildan buyon ko'plab tomoshabinlar e'tiborini qozonib kelayapti.

Tongi dam olish dasturining 48 daqiqasida teleboshlovchi va muallif Gennadiy Malaxov no'anaviy xalq tabobati hamda fitness bo'yicha murabbiy Mariya Korpan yaratgan nafas tizimiga oid gimnastika, sog'lomlashtiruvchi mashqlar efirga beriladi. [2] Ushbu tok-shou orqali ular teletomoshabinlarga tog'ri ovqatlanish va kasalliklarni noodatiy usullar orqali davolash muolajasi, inson tanasi uchun yaxshi va yomon bo'lgan holatlar haqida o'z maslahatlarini berishadi. Bu tok-shou keng auditoriyaga inson salomatligini saqlashda zamonaviy super tibbiyot metodikasi va oddiy yo'l bilan sog'lom turmush tarziga rioya qilish usullari haqida foydali ma'lumotlar bilan alohida o'rin tutadi. Mazkur dastur insonlarni kun davomida yaxshi kayfiyatda bo'lib, ortiqcha depressiya va stress holatlardan xoli bo'lishga undaydi. Ko'rsatuv jarayonida tomoshabin o'z sog'ligiga befarq bo'lmaslik, zamonaviy tibbiyot yangiliklardan boxabar bo'lish, xalq tabobati orqali foydali tavsiyalarining ahamiyati haqida mutaxassislar o'z fikrlarini intervyu yoki suhbat orqali berib borishadi [3].

Shubhasizki, ushbu ko'rsatuvni tayyorlashda mahoratli ssenariytslar, teleboshlovchilar, muharrirlar, prodyusserlar va tasvirchilar hamda ijodiy jamoaning mehnati, tajribasi keng auditoriyada namoyon bo'ladi. Mazkur tok-shouning ssenariy muallifi Yuliya Tetdova va mahoratli boshlovchilarning sa'yi-harakatlari hamda televizion atmosferadagi o'zaro ahillik ham telemahsulotni sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Hamda ijodkorlarning teletomoshabinlar e'tiborini qozonishdagi sa'y-harakatlari tasvirga olish jarayonida yaqqol sezilib turadi.

O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tomonidan xorijiy teleradioeshittirish tuzilmalari, axborot agentliklari va xalqaro tashkilotlar bilan teleradioeshittirish sohasida erishilgan kelishuvlarni hamda yo'lga qo'yilgan samarali hamkorlikni mustahkamlash va sifat jihatidan yangi pogonaga ko'tarish borasida izchil faoliyat amalga oshirib kelinmoqda. [1] Ushbu hamkorlik O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tashqi aloqalarda o'z ijobiy natijasini berayapti. Shu o'rinda 1999 yildan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi mintaqadagi xalqaro muassasalar, ya'ni ABU Osiyo va Tinch okeani teleradioeshittirishlari Uyushmasiga a'zo aylandi. 2004 yildan esa uning to'la huquqli a'zosi bo'ldi. Ushbu o'zaro manfaatli hamkorlik ijobiy natijasini berdi. MTRK, 2009 yilda AIBD ya'ni Osiyo va Tinch okeani mintaqasi teleradioeshittirishni rivojlantirish institutiga a'zosi hamdir. 2015 yilda Toshkent shahrida O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "ABU" bilan hamkorlikda "Uyushma forum"larini muvaffaqiyatli o'tkazdi. 2019 yil noyabrda Osiyo va Tinch okeani teleradioeshittirishlari Uyushmasi Bosh assambleyasining Yaponiya davlatida bo'lib o'tgan 56-yig'ilish yakunlarida O'zbekiston milliy teleradiokompaniya yangi uch yillik muddatga Uyushma Boshqaruv kengashi a'zoliciga qayta saylandi. Mazkur hamkorlik axborot va teledasturlar bilan almashinuv, mintaqada teleradiodasturlar sohasini rivojlantirish,

ijodiy hamda texnik jamoa malakasini oshirish va qayta tayyorlash, xalqaro sport tadbirlarini birgalikda yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar. Har yili O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi xalqaro aloqalar bo'limi tomonidan Malayziyaning "ABU" Media Academy akademiyasi bilan hamkorlikda dunyo jurnalistika sohasida ro'y berayotgan zamonaviy islohotlar bo'yicha onlayn malaka oshirish o'quv kurslari tashkil etiladi.

2021 yil pandemiya davrida xalqaro Uyushma kotibiyati bilan mintaqa qatnashuvchilari va manfaatdor ishtirokchi davlatlar hamkorligida onlayn "ABU Media Forum" bo'lib o'tdi. "ABU" nufuzli tashkilot doimiy ravishda tele va radiokanallar muxbirlari va texnik xodimlari uchun yangi texnologiyalar bo'yicha o'quv kurslar, seminarlar, treninglar o'tkazadi. Shu o'rinda soha mutaxassislarining kasbiy bilim va tajribasini oshirish maqsadida forumlar, konferentsiyalar, mahorat darslari va tadbirlarni tashkil etadi. Men 2024 yil bahor mavsumida Malayziyaning "ABU" Media Academy akademiyasining malakaviy o'qishida ishtirok etdim. "ABU Webinars", "ABU Sports" kabi onlayn o'quv seminar va vebinarlar bo'lib o'tdi. [1] Mutaxassislar bizga "Parij -2024" yozgi olimpiada o'yinlaridagi tasvirga olish bo'yicha tashkiliy ishlar hamda sport jurnalistlari, reportyorlari va sharhlovchilari uchun yaratilgan sharoitlar, qulay zamonaviy texnologiyalar, kompyuter grafikasi va ovoz yozish texnikasi, sohasiga oid rasmiy veb-saytlardan

foydalanish haqida taqdimotlarini tavsiya etishdi. Vebinarlarda onlayn tarzda Parijdan yetakchi mutaxassislar "ZOOM" platformasi orqali sport jurnalistlariga o'z ijodiy videoroliklarini namoyish etdilar. [2] Vebinar ishtirokchilarni qiziqtirgan savollariga javob berishdi. Ushbu xalqaro o'quv sport vebinari ingliz tilida olib borildi. E'tiborlisi, unda Osiyo qit'asidagi malakali sport jurnalistlari ishtirok etishdi.

Xulosam, yakunida men ushbu o'quv seminarida qatnashganim, kelajakda o'z kasbimga bo'lgan intilishni zamonaviy bilim va tajribani uzviy bog'liq ravishda olib borishimga katta yordam berdi. Bu o'quv jarayoni televideniye sport jurnalisti o'zaro tajriba almashish bilan birga, zamon bilan hamnafas bo'lishda xorijiy sport jurnalistikasida ro'y berayotgan so'nggi yangiliklardan boxabar bo'lish imkoniyatini beradi. Eng asosiysi, ular sport o'yinlarini yoritish bilan birga, o'z tomoshabinini ushlab qolishda yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tajribasini amalda ko'rsata oldi.

Taklifim, televideniye va sportni ommalashtirish masalalari bo'yicha sotsiologik tadqiqotlarni ko'paytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu so'rovnomalarni aholi o'rtasida haqqoniy va holisona olib borishda, sotsilog mutaxassislar bilan hamkorlikni mustahkam yo'lga qo'yish kerak. Bu borada ommaviy axborot vositalari faol pozitsiyaga ega bo'lishsa, tayyorlayotgan telemahsulotni tomoshabiniga yanada sifatli, mazmunli va tahliliy yetkazishda o'z samarasini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Lex.uz saytidan olindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, farmoni 21.02.2024 yildagi PF-37-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni q'ollab-quvvatlash yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi
2. Lex.uz saytidan olindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01 2022 eildagi PF -60-son. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida 67-maqсад: Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish.
3. O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi Web-sayt, Telegram, Facebook, Instagram, Yutube platformasidan foydalanildi.
4. TV3.ru [https://G'G'tv3.ru>project>azbuka-zdorovya](https://G'G'tv3.ru/project>azbuka-zdorovya)
5. webinars@abu.org.my
6. ЖУРНАЛИСТИКА. Аудиовизуал журналистика. 6-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2019.
7. Рўзиев Ф., Жўраева Х. Тележурналистга тавсиялар – Т.: Шарк, 2013.
8. Цвик В.Г. Телевизионная журналистика. Теория и практика. –М., 2000.
9. Ўзбекистон миллий телерадиокомпанияси : замон билан ҳамқадам.– Т.: "O'zbekiston" НМИУ, 2016-1926. "Sport" телерадиоканали. 74-бет
10. Ўзбекистон миллий телерадиокомпанияси : замон билан ҳамқадам Т.: "IJD-PRESS" нашриёти, 2022-172-6.